

**O'QUVCHI-YOSHLARDA KASBIY KOMPETENSIYALARINI  
RIVOJLANTIRISHDA O'ZBEK TILINI O'QITISHNI  
TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI**

*Madaliyev Asqarali Yigitaliyevich*

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali*

*“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrasining erkin tadqiqotchisi*

*Email: madaliyev70@mail.ru*

*Tel: +998903476802*

**Annotatsiya.** Mustaqillik sharofati bilan ta'lim sohasida ham ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Davlat ta'lim standartlari"ning joriy qilinishi ushbu jarayonlardagi eng muhim bosqich sifatida xarakterlanadi. Bundan tashqari, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, ta'lim dargohlarida, xususan, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining o'qitilishini takomillashtiruvchi ilmiy-uslubiy faoliyatni rivojlantirish har kungidan ham muhimdir. Ushbu maqola ana shu muhim masalaga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** multimedia resurslar, yondashuv an'anaviy metod, zamonaviy metod, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, uzluksiz ta'lim, nutq kompetensiyasi, vosita, loyiha metodikasi, didaktika, dastur, kompyuter, elektron aloqa, jarayon, loyiha, imkoniyat.

Xalqimizning ko'p asrlik madaniy, ilmiy-ma'rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo'lgan o'zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir.

Ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar jarayonining o'ziga xos bo'g'ini sifatida mamlakat yoshlariga o'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish, ta'lim dargohlarida, xususan, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tilining o'qitilishini takomillashtirish kun tartibidagi dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash maqsadida 2019 yil 21 oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Farmoni ana shu dolzarb masalaning bir yechimi deyish mumkin.

Mazkur Farmonda belgilangan vazifalardan biri ta’lim muassasalarida davlat tilini o’rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirishdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabrdagi «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5850-son va 2020 yil 20 oktabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoniga muvofiq 2020 — 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Uzhbu huquqiy asoslar tag zamirida o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘tib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash, O‘zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o‘zbek tilini o‘rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsad qilingan.

2020 — 2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi uch bobdan iborat bo‘lib, “Davlat tilini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari” deb nomlangan 2-bobdagi “Ta’lim tashkilotlarida davlat tilini o‘qitish tizimini yanada takomillashtirish, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish”ga oid bo‘limning maqsadlaridan biri ham ta’limning barcha bosqichlarida davlat tili o‘qitilishi hamda o‘zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko‘lamini kengaytirishdan iboratdir.

Shuningdek, konsepsiyada davlat oliy ta’lim muassasalarining ta’lim boshqa tillarda olib boriladigan yo‘nalishlarida “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” fanini o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish, barcha oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat bosqichida «Kasbiy nutq madaniyati» fanini joriy qilish, oliy ta’lim muassasalarining filologiya ta’lim yo‘nalishlarida “Kompyuter lingvistikasi”, “Amaliy filologiya” yo‘nalishlarini tashkil qilish hamda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitishning zamonaviy metodikasini yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kun o‘qituvchilariga yangi vazifa va bir qancha ma’suliyatlarni yuklaydi. Zamonaviy ta’lim va o‘zbek tilini o‘rgatish metodlarini dars jarayonlarini qo‘llash zamonaviy o‘qitish metodikasining sezilarli rivojlanishini anglatadi.

Shu sababli ayni damda barcha o‘zbek tili o‘qituvchilari o‘z darslarini yanada jonlantirish maqsadida texnologiyalardan foydalanish zaruriyatini his eta boshladilar.

Hozirgi kunda o‘zbek tilini takomillashtirishning ahamiyati O‘zbekistonda avvalgiga qaraganda ansha yuqori bo‘lib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda bir qator o‘zbek tili mutaxassislari o‘zbek tilini o‘rganishning yangi metod va usullarini hayotga tadbiq qilishmoqda. Bu albatta o‘zbek tilini o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi.

Ta’lim jarayoni sifati ta’lim standartlari, ta’lim dasturlari, ta’lim jarayoniga jalb qilingan professoro’qituvchilar ilmiy salohiyati, ta’lim oluvchilar salohiyati, ta’lim berish jarayoni texnik vositalari, ta’lim texnologiyalari, ta’lim jarayonini boshqarishning sifat darajasi kabi omillar bilan ta’minlanadi. Jahon tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Internetning ta’lim sohasiga keng kirib kelishi ta’lim xizmatlarining globallashuvi uchun ham katta yo’l oshmoqda. Rivojlangan davlatlar ta’lim sohasida bo’layotgan bunday ijobiy jihatlarni e’tiborga olgan holda ta’lim sifatini yuksaltirish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy ravishda keng foydalanish davr talabaga aylanib bormoqda.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini ta’lim jarayoniga kirib kelishi an’anaviy o’qitish usullariga qo’shimcha ravishda yangi o’qitish shakliga zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni yaratilishiga omil bo’ldi.

Bundan tashqari, u o’qitish tizimini ancha samaradorligini oshiradi va o’z navbatida til o’rganilyotgan talabani zamon bilan hamnafas bo’lib, olg’a intilishiga ko’maklashadi. Texnologiya asta sekinlik bilan an’anaviy o’qitishning o’rnini egallamoqda.

Shuningdek, so’zlashib va yozib o’rganishda ham texnologiyadan foydalangan holda dars o’tish jarayonida multimedialardan foydalanib, o’quvchi-talabalarga video – filmlar, roliklar namoyish qilish va uni muhokama qilish juda samarali usul hisoblanadi. Bunda o’rganuvchilarga tanish bo’lgan lug’at ishlatilishi, yangi va murakkab so’zlar ishtirok etgan bo’lsa so’zlarga izoh berish, yangi so’zlar bilan bog’liq bo’lgan mashqlar bajarib olingach, video manbani namoyish etish mumkin. Bugungi kunda asosiy e’tibor talaba, uning shaxsiyati va o’ziga xos ichki dunyosiga qaratilgan. Shuning uchun zamonaviy o’qituvchining asosiy maqsadi tashkil etish usullari va shakllarini tanlashdir o’quv faoliyati shaxsiy rivojlanishning belgilangan maqsadiga optimal darajada mos keladigan talabalar. So’nggi yillarda maktablarda yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish masalasi tobora ko’proq ko’tarilmoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o’qitishning yangi shakllari va usullari, o’quv jarayoniga yangicha yondoshishdir. O’zbek tilini o’qitishning asosiy maqsadi maktab talabalarining kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, o’zbek tilini amaliy o’zlashtirishga o’rgatishdir.

O’qituvchining vazifasi har bir talaba uchun tilni amaliy o’zlashtirish uchun sharoit yaratish, har bir talabaga o’z faolligini, ijodkorligini namoyish etishiga imkon beradigan shunday o’qitish usullarini tanlashdir. O’qituvchining vazifasi o’zbek tillarini o’qitish jarayonida talabaning bilish faoliyatini faollashtirishdir. Hamkorlikda o’rganish, loyiha metodikasi, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, Internet-resurslar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalar o’quv jarayonida shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi.

Talaba mustaqil ravishda yoki o’qituvchi rahbarligi ostida muammoning echimini izlaydi, buning uchun nafaqat o’zbek tilini bilish, balki katta miqdordagi predmetli bilimlarga ega bo’lish, ijodiy, kommunikativ va intellektual ko’nikmalarga ega bo’lish talab etiladi. Xorijiy tillar jarayonida loyiha usuli deyarli har qanday mavzu bo’yicha dastur manbalari doirasida ishlatilishi mumkin. Loyihalar ustida ishlash tasavvur,

fantaziya, ijodiy fikrlash, mustaqillik va boshqa shaxsiy fazilatlarni rivojlantiradi. Zamonaviy texnologiyalarga hamkorlik texnologiyasi ham amal qiladi. Axborot texnologiyalarini o‘qitishga joriy etish, axborotni idrok etish va qayta ishlash jarayonini ancha diversifikatsiya qiladi. Kompyuter, Internet va multimediya tufayli talabalarga keyingi tahlil qilish va saralash bilan katta hajmdagi ma’lumotlarni o‘zlashtirish uchun noyob imkoniyat yaratildi. Ta’lim faoliyatining motivatsion asoslari ham sezilarli darajada kengaymoqda. Multimediyadan foydalanish sharoitida talabalar gazetalardan, televizordan ma’lumot olishadi, o‘zlari intervyular o‘tkazadilar va telekonferensiyalar o‘tkazadilar. Yuqoridagi texnologiyalarni o‘rganish asosidagi tahlillardan ma’lum bo‘ldiki, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonini mutlaqo zamonaviy omilsiz tashkil etib bo‘lmaydi. Shu sababli samarali metodikalarni o‘rganish va shu asosda o‘qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatini milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, o‘zbek tilini o‘rganishni tashkil qilishning amaldagi tizimini tahlil etish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va darsliklar zamon talablariga, xususan, ilg‘or axborot va media-texnologiyalardan foydalanish borasidagi talabga to‘liq javob bermayapti. Ta’lim asosan an’anaviy uslublarda olib borilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zbek tilini uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlashni har tomonlama takomillashtirish taqozo etiladi.

#### **Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i, 19.10.2021 yildagi 35-2021-son
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 21.10.2019 yildagi PF-5850-son
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 20.10.2020 yildagi PF-6084-son